

**“Navoiyazot” AJ
Kuzatuv kengashining
2026-yil 13-martdagi
yig‘ilishi 229-son
bayonnomasiga muvofiq
“TASDIQLANGAN”**

**“NAVOIYAZOT”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
KORUPPSIYAGA QARSHI
SIYOSATI**

(YANGI TAHRIR)

Navoiy-2026

**«УТВЕРЖДЕНО»
согласно протокола
Наблюдательного совета
АО «Navoiyazot»
от 13 марта 2026 года
№ 229**

**АНТИКОРРУПЦИОННАЯ
ПОЛИТИКА
АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА
«NAVOIYAZOT»**

(НОВАЯ РЕДАКЦИЯ)

Навои-2026

O'zbek tilida	На русском языке
I. Umumiy qoidalar	I. Общие положения
1.1. Ushbu Siyosat “Navoiyazot” AJ(keyingi o‘rinlarda - Jamiyat)da xalollik siyosatini ta’minlash, ya’ni xodimlar va umuman jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida yuksak xulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog‘ida Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka doir pozitsiyasini ifodalaydi.	1.1. Настоящая Политика выражает позицию АО «Navoiyazot» (далее — Общество) по обеспечению политики честности, а именно: повышению культуры борьбы с коррупцией среди сотрудников и в Обществе в целом, соблюдению высоких стандартов поведения, а также недопущению совершения коррупционных действий сотрудниками Общества при исполнении ими должностных (служебных) обязанностей
1.2. Ushbu Siyosat O‘zbekiston Respublikasining 2017-yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi va 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlar talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish, uning samaradorligini oshirish va qo‘llab quvvatlash bo‘yicha amaldagi Qarorlari, Farmon va Farmoishlari hamda 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-sonli “Davlat organlari va Jamiyatlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va PF-71-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gifarmonga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurash soxasidagi xalqaro Tashkilotlar tavsiyalari va ilg‘or dunyo tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi - Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini xisobga olgan holda ishlab chiqilgan.	1.2. Настоящая Политика разработана в соответствии с требованиями законов Республики Узбекистан «О противодействии коррупции» от 2017 года и «О конфликте интересов» от 5 июня 2024 года, действующими постановлениями, указами и распоряжениями Президента Республики Узбекистан по внедрению системы противодействия коррупции, повышению её эффективности и поддержке, а также постановлением № ПП-147 от 21 апреля 2025 года «О мерах по обеспечению независимости и повышению эффективности деятельности подразделений внутреннего антикоррупционного контроля государственных органов и обществ» и указом № УП-71 «О мерах по эффективной организации исполнения приоритетных задач, определенных по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции», с учетом рекомендаций международных организаций в сфере борьбы с коррупцией и передового мирового опыта, включая требования и рекомендации международного стандарта ISO 37001:2016 «Системы менеджмента противодействия взяточничеству — Требования и рекомендации по применению».
1.3. Jamiyat Siyosatni o‘z faoliyatining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, qabul qiladi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar va mavjud resurslar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘z mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi.	1.3. Общество принимает Политику исходя из специфики своей деятельности, разрабатывает и внедряет собственные механизмы по противодействию коррупции на основе специфических и остаточных коррупционных рисков, а также имеющихся ресурсов
1.4. Quyidagilar Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadi hisoblanadi: 1.4.1. Jamiyat xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar talablarini tushunish va ularga rioya etilishi;	1.4. Основными целями противодействия коррупции в Обществе являются: 1.4.1. Понимание и соблюдение сотрудниками Общества требований законов Республики Узбекистан и внутренних документов по противодействию коррупции; 1.4.2. Снижение коррупционных рисков и искоренение коррупции в

1.4.2. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga barham berish; 1.4.3. Jamiyatning barcha faoliyat soxalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; 1.4.4. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; 1.4.5. Jamiyat xodimlari faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash; 1.4.6. korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash; 1.4.7. aholining Jamiyat faoliyati yuzasidan huquqiy ongi va madaniyati darajasini oshirish; 1.4.8. Jamiyatda mavjud korrupsiyaga barham berish.	Обществе; 1.4.3. Реализация мер по предупреждению коррупции во всех сферах деятельности Общества; 1.4.4. Формирование в Обществе атмосферы нетерпимого отношения к коррупции; 1.4.5. Обеспечение прозрачности деятельности сотрудников Общества и их соответствия нормам этического поведения; 1.4.6. Своевременное выявление и пресечение коррупционных действий, устранение их последствий, а также причин и условий, способствующих их совершению, обеспечение принципа неотвратимости ответственности за совершение коррупционных правонарушений; 1.4.7. Повышение уровня правосознания и правовой культуры населения в отношении деятельности Общества; 1.4.8. Искоренение существующей коррупции в Обществе
1.5. Mazkur Siyosat talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'iy nazar Jamiyatning barcha xodimlari uchun birdek amal qiladi.	1.5. Требования настоящей Политики в равной степени распространяются на всех сотрудников Общества, независимо от занимаемой ими должности и выполняемых функций
1.6. Mazkur Siyosatning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi: aloqador shaxslar - Jamiyat xodimi bilan tijorat Tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno; davlat organlari va muassasalari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari (jumladan, vazirliklar, xizmatlar, agentlik, markazlar va b. idoralar) va ularning tarkibiy bo'linmalari, shuningdek davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan yuridik shaxslar; ish faoliyati yuzasidan mehmondo'stlik belgilari – uchinchi shaxslarning hamkorlik o'rnatish va/yoki uni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan, Jamiyat xodimlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan, Jamiyat xodimlari manfaatlari yo'lidagi harajatlari, jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishi, ish faoliyati yuzasidan tushliklar tashkil etilishi bilan bog'liq harajatlari, transport	1.6. Для целей настоящей Политики используются следующие основные понятия и термины: связанные лица — лица, участвующие совместно с сотрудником Общества в уставном капитале коммерческих организаций, за исключением случаев владения акциями в размере менее пяти процентов от уставного капитала акционерных обществ, акции которых находятся в публичном обращении на Республиканской фондовой бирже; государственные органы и учреждения — органы государственной власти и управления, органы самоуправления граждан (в том числе министерства, службы, агентства, центры и другие ведомства) и их структурные подразделения, а также юридические лица, прямо или косвенно контролируемые государством; признаки делового гостеприимства — расходы третьих лиц в интересах сотрудников Общества, связанные с установлением и/или поддержанием сотрудничества и направленные на повышение лояльности сотрудников Общества, в том числе расходы третьих лиц на питание, организацию деловых обедов, транспортные расходы, проживание, развлекательные мероприятия, включая расходы на программы путешествий и т.д.;

harajatlari, yashash, ko'ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlari bilan bog'liq harajatlar va h.k.;

kontragent – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

korruptsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaviy xavf-xatar – Jamiyat xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Tashkilot nomidan yoki ularning manfaatlari yo'lida korruptsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi;

korruptsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korruptsiyaviy huquqbuzarlik – sodir etilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilab qo'yilgan korruptsiya alomatlariga ega hatti-harakat;

korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi – Jamiyatda korruptsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi – korruptsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Jamiyatning korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Jamiyat xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

kronizm (favoritizmning do'stona aloqalarga asoslangan ko'rinishi) – do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat va/yoki obro'sidan foydalanish;

mansabdor shaxs:

doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar,

контрагент — любое юридическое или физическое лицо, вступившее в договорные отношения с Обществом (за исключением трудовых отношений);

коррупция — незаконное использование лицом своего должностного или служебного положения с целью получения материальной или нематериальной выгоды в личных интересах или в интересах иных лиц, а равно незаконное предоставление такой выгоды;

коррупционный риск — риск совершения коррупционных действий сотрудниками Общества или третьими лицами от имени или в интересах Организации;

коррупционные действия — прямое или косвенное, лично или через третьих лиц, получение сотрудником материальной выгоды, ее требование, взыскание, предложение или предоставление за совершение действия или бездействие в интересах дающего взятку, включая получение денег, ценных бумаг, иного имущества и имущественных прав, услуг имущественного характера, дачу и/или получение взятки либо посредничество в этом, взимание платежей за упрощение формальностей (получение взятки) и иное незаконное использование своих служебных обязанностей в корыстных целях;

коррупционное правонарушение — деяние, обладающее признаками коррупции, за совершение которого законодательством Республики Узбекистан установлена ответственность;

структура внутреннего антикоррупционного контроля — структурное подразделение, на которое возложены задачи по противодействию коррупции в Обществе;

система противодействия коррупции — комплекс мер по предупреждению коррупционных действий, нарушений антикоррупционного законодательства Республики Узбекистан и внутренних документов Общества по вопросам противодействия коррупции, а также по обеспечению высокого профессионального и этического уровня деятельности сотрудников Общества;

кронизм (форма фаворитизма, основанная на дружеских связях) — использование власти и/или авторитета в целях предоставления незаконных привилегий друзьям или доверенным лицам;

должностное лицо:

лицо, назначаемое или избираемое постоянно, временно или по специальному полномочию, выполняющее функции представителя власти

korxonalarda, muassasalarda, Jamiyatlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs,

xalqaro Jamiyatda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

manfaatlar to'qnashuvi – Jamiyat xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Jamiyatlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

mahalliychilik – mahalliy manfatlarnigina ko'zlab ish tutish. Bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e'tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli, uning lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

nepotizm (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko'rinishi) - o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar xisoblash, Jamiyat manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar – belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog'liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta'minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ me'yorlar hamda qoidalarda ko'zda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda;

urug'-aymoqchilik – Jamiyat xodimining avlod-ajdodlari bir bo'lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

favoritizm – Jamiyat xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Jamiyatda kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko'tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar,

либо осуществляющее организационно-распорядительные, административно-хозяйственные функции в государственных органах, органах самоуправления граждан, на предприятиях, в учреждениях, организациях независимо от формы собственности и уполномоченное на совершение юридически значимых действий;

лицо, осуществляющее указанные функции в международной организации либо в законодательном, исполнительном, административном или судебном органе иностранного государства;

конфликт интересов — ситуация, при которой личная (прямая или косвенная) заинтересованность сотрудника Общества влияет или может повлиять на надлежащее исполнение им должностных или служебных обязанностей и при которой возникает или может возникнуть противоречие между личной заинтересованностью и правами и законными интересами граждан, организаций, общества или государства;

местничество — действия, совершаемые исключительно в местных интересах. При этом под местничеством понимается прием на работу, ротация и назначение на должность лица ввиду его происхождения (принадлежности к знатному или известному роду) либо служебного положения его близких родственников, без учета соответствия лица квалификационным требованиям к должности;

непотизм (кумовство, семейственность, форма фаворитизма, основанная на родственных связях) — использование власти и (или) влияния в целях предоставления незаконных привилегий своим близким родственникам или друзьям, а также необоснованное начисление вознаграждений близким родственникам и (или) друзьям, прием на работу и назначение на должности близких родственников и друзей в ущерб интересам Общества;

платежи для упрощения формальностей — незаконно предоставляемые денежные средства, имущество, имущественные права, услуги, а также иная материальная и нематериальная выгода в целях обеспечения или ускорения выполнения установленных процедур или стандартных действий;

родоплеменные отношения (трайбализм) — личная заинтересованность сотрудника Общества в форме субъективного, привилегированного и пристрастного отношения к третьим лицам на основании принадлежности к общему предку или одной династии;

фаворитизм — приоритетное внимание сотрудника Общества к интересам одного лица и/или группы лиц по сравнению с интересами других,

shuningdek ish va navbatchilik jadvallarini ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik.

xayriya (xayriya yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (xayriya qiluvchilar)ning Jamiyat uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy va/yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablag'lari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun ma'lum ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va xayriya maqsadlaridagi boshqa qo'llab-quvvatlashlarni taqdim etishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy beg'araz yordami;

xalqaro Jamiyat – davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalqaro Jamiyatlar tomonidan tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat'iy nazar tashkil etilgan har qanday xalqaro Jamiyat, jumladan, masalan iqtisodiy integratsiya bo'yicha mintaqaviy Jamiyatlar;

xodim – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

homiylilik (homiylilik yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar) tomonidan Jamiyat (homiylilik qilinayotgan muassasalar)ga ular uchun ishlar bajarib berish, xizmatlar ko'rsatish va hayriya maqsadlarida boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatish, mol-mulk, jumladan pul mablag'lari taqdim etish bilan ifodalanadigan yordami hisoblanib, ularning natijasida Jamiyat muassasalarida homiy oldida o'zaro majburiyatlar yuzaga keladi;

shafelik – Jamiyat xodimining lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi;

yaqin qarindoshlar – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tug'ishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari.

выражающееся в несоблюдении установленных процедур при подборе и расстановке кадров, продвижении по службе, выплате премий, представлении к государственным наградам, предоставлении отпусков или направлении в оздоровительные учреждения и зарубежные командировки, а также при рассмотрении обращений и составлении графиков работы и дежурств;

благотворительность (благотворительная помощь) — добровольная безвозмездная помощь юридических и физических лиц (благотворителей), выражающаяся в передаче Обществу материальных и/или нематериальных ценностей (в частности, денежных средств), выполнении работ, оказании услуг и иной поддержке в благотворительных целях на безвозмездной или льготной основе;

международная организация — любая международная организация, созданная государствами, правительствами или другими международными организациями, независимо от ее организационной формы и полномочий, включая, например, региональные организации экономической интеграции;

сотрудник — физическое лицо, вступившее в трудовые отношения с Обществом;

спонсорство (спонсорская помощь) — помощь, оказываемая юридическими и физическими лицами (спонсорами) Обществу (спонсируемым учреждениям) в виде выполнения работ, оказания услуг, предоставления имущества, в том числе денежных средств, в результате чего у учреждений Общества возникают встречные обязательства перед спонсором;

протекционизм (шефство) — защита сотрудника Общества другим вышестоящим сотрудником в форме создания благоприятных условий труда или покровительства;

близкие родственники — лица, состоящие в родстве или близких связях, а именно: родители, кровные и сводные братья и сестры, супруги, дети (в том числе усыновленные), дедушки, бабушки, внуки, а также родители, кровные и сводные братья и сестры супруга (супруги).

II. Korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tamoyillari

2.1. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi:

qonuniylilik - Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat

II. Важные принципы противодействия коррупции

2.1. Система противодействия коррупции организуется и функционирует на основе следующих принципов:

законность — меры по противодействию коррупции в Обществе осуществляются в соответствии с требованиями законодательства

organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or dunyo tajribasi, shuningdek, Jamiyat ichki hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi;

korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) - Jamiyat o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz (toqatsiz) munosabatda bo'ladi. Jamiyat hodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qat'iyani taqiqlanadi;

ochiqlik va shaffoflik - Jamiyat xodimlari va kontragentlari, keng jamoatchilikni Jamiyatda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda);

korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega bo'lishi, tizimlilik va yaxlitligi - korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi va Jamiyatning barcha funksiyalari va yo'nalishlarini qamrab olgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarlighi - korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Jamiyat xodimlari o'zining mavqei va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish - Jamiyat korrupsiyaga qarshi kurash tizimini shakllantirishda ilmfan taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;

to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish - Jamiyatning har bir xodimi korrupsiyaviy harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun hududiy boshqarma yoki uning tasarrufidagi muassasa rahbari hamda Jamiyat rahbariga hech qanday to'siqsiz murojaat qilishi mumkin;

Республики Узбекистан, с учетом передового мирового опыта противодействия коррупции в государственных органах, а также при строгом соблюдении внутренних документов Общества;

нетерпимость к коррупции — Общество проявляет нетерпимое отношение к любым формам и проявлениям коррупции во всех сферах своей деятельности. Сотрудникам Общества строго запрещается прямо или косвенно участвовать в деятельности, в которой может возникнуть коррупционный риск;

открытость и прозрачность — информирование сотрудников и контрагентов Общества, а также широкой общественности о принятых и реализуемых в Обществе мерах (с учетом требований законодательства о конфиденциальности и служебной тайне);

превентивный характер, системность и целостность антикоррупционных мер — приоритетность реализации мер, направленных на предупреждение коррупции, устранение причин и условий, способствующих совершению коррупционных действий, а также устранение коррупционных рисков. Внедряемые антикоррупционные меры и процедуры должны соответствовать уровню выявленных рисков и объединяться в систему противодействия коррупции, охватывающую все функции и направления деятельности Общества;

неотвратимость ответственности за коррупционные правонарушения — сотрудники Общества, совершившие коррупционные правонарушения, привлекаются к ответственности в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и внутренними документами Общества независимо от их статуса и занимаемой должности;

использование достижений научно-технического прогресса и информационных технологий — при формировании системы противодействия коррупции Общество стремится к широкому использованию последних достижений науки, в том числе интегрированных информационно-коммуникационных систем;

прямое обращение к руководству — каждый сотрудник Общества при наличии достоверной и обоснованной информации о совершении коррупционного действия может беспрепятственно обратиться к руководителю территориального управления или подведомственного учреждения, а также к руководству Общества для принятия мер, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан и внутренними документами Общества;

monitoring, tahlil va baholash: davriy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi o'z faoliyatini monitoringi va tahlilini amalga oshiradi, shuningdek, uning samaradorlik va natijadorlik ko'rsatkichlarini baholaydi. korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish - korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to'xtovsiz ravishda oshirish choralari ko'riladi.	мониторинг, анализ и оценка — система противодействия коррупции на периодической основе осуществляет мониторинг и анализ своей деятельности, а также оценивает показатели её эффективности и результативности; постоянное совершенствование системы противодействия коррупции — в целях мониторинга и контроля системы предупреждения и противодействия коррупции, а также устранения коррупционных рисков, в Обществе принимаются меры по непрерывному повышению эффективности антикоррупционной деятельности.
III. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari	III. Основные направления противодействия коррупции
3.1. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish	3.1. Управление конфликтом интересов
3.1.1. Jamiyat xodimlari o'z lavozim majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishi, o'z mansab va xizmat mavqeidan va Jamiyat tasarrufidagi mol-mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo'lida foydalanmasligi va manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan saqlanishi lozim.	3.1.1. Сотрудники Общества должны честно и добросовестно исполнять свои должностные обязанности, не использовать свое должностное или служебное положение и имущество, находящееся в распоряжении Общества, в целях личной заинтересованности и избегать ситуаций, которые могут привести к конфликту интересов
3.1.2. Jamiyat xodimlari ishga qabul qilinayotganda, lavozimi ko'tarilayotganda va rotatsiya qilinayotganda har yili va tegishli vaziyatlar/shart-sharoitlar yuzaga kelishiga qarab manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligiga doir axborotni ochiqlashi lozim.	3.1.2. Работники Общества при приеме на работу, повышении в должности и ротации, а также ежегодно и при возникновении соответствующих ситуаций/обстоятельств, обязаны раскрывать информацию о личной заинтересованности, которая приводит или может привести к конфликту интересов.
3.1.3. Jamiyat xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi va uni tartibga solishga doir axborotni ochiqlash jarayoni Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibi to'g'risida ichki idoraviy hujjatda belgilab qo'yiladi.	3.1.3. Процесс раскрытия работниками Общества информации о конфликте интересов и его урегулировании определяется внутренним ведомственным документом о порядке управления конфликтами интересов в Обществе.
3.1.4. Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib-taomillari Jamiyat xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqasi ro'y beradigan barcha funksiyalarga joriy etilishi lozim (masalan, tanlov savdolarini tashkil qilish, reytinglarni hisoblash va h.k.).	3.1.4. Эффективные контрольные процедуры для выявления конфликтов интересов должны быть внедрены во все функции, где происходит взаимодействие работников Общества с третьими лицами (например, организация тендерных торгов, расчет рейтингов и т.д.).
3.2. Ish yuzasidan sovg'alar va mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish	3.2. Принятие деловых подарков и знаков делового гостеприимства
3.2.1. Jamiyat xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishi doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'alar mehmondo'stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaho qog'ozlar, kriptovalyuta,	3.2.1. Работникам Общества в рамках выполнения ими своих служебных обязанностей запрещается получение от физических и юридических лиц подарков и знаков гостеприимства, включая средства стимулирования в виде займов, гарантий, поручительств, вознаграждений, материальной помощи, денежных средств в наличной или безналичной форме или их эквивалентов,

boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko‘rinishidagi rag‘bat vositalarini olish taqiqlanadi. Bunda, konferensiyalar, seminarlar va turli shu kabi uchrashuvlarda taqdim etiladigan umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan oshmaydigan buyumlar bundan istisno hisoblanadi.	ценных бумаг, криптовалюты, других материальных ценностей или услуг. При этом исключением являются предметы, предоставляемые на конференциях, семинарах и различных подобных встречах, общая стоимость которых не превышает 1-кратного размера базовой расчетной величины (БРВ).
3.2.2. Jamiyatda ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o‘rtasida xizmat majburiyatlarini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan va xodim shaxsi bilan bog‘liq deb e’tirof etilgan sovg‘alarni berishda quyidagilarga rioya qilinadi: sogv‘a oluvchi uchun manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sogv‘a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim; sogv‘a ochiq-oydin beriladi, sogv‘a berilayotgani yashirilmaydi; sogv‘ani faqat umume’tirof etilgan bayramlar (tavallud ayyomi, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi; sogv‘alar Jamiyatning kamida uchta xodimi ishtirokida berilishi lozim; sogv‘ani berish chog‘ida sogv‘a berish uchun sabab bo‘lgan voqea-hodisa aniq bayon etiladi; sogv‘aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig‘imlar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim; Jamiyatning bir xodimi ikkinchi xodimga sogv‘a olish uchun sarflaydigan summa miqdori har holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim.	3.2.2. В целях предупреждения внутренней коррупции в Обществе, при вручении подарков между работниками, которые не связаны с выполнением служебных обязанностей и признаны связанными с личностью работника, соблюдается следующее: подарок не должен создавать ситуацию конфликта интересов для получателя и не должен порождать каких-либо обязательств перед дарителем; подарок вручается открыто, факт дарения не скрывается; подарок разрешается дарить только по случаю общепризнанных праздников (день рождения, рождение ребенка, День защитников Отечества, Международный женский день, Новый год и т.д.); подарки должны вручаться в присутствии не менее трех работников Общества; при вручении подарка четко излагается событие, ставшее поводом для дарения; общая стоимость подарка (с учетом всех налогов и сборов) не должна превышать 5 (пяти) кратный размер базовой расчетной величины; сумма, затрачиваемая одним работником Общества на приобретение подарка другому работнику, в каждом отдельном случае не должна превышать 1 (одного) кратного размера базовой расчетной величины.
3.2.3. Shubha (gumon)lardan holi bo‘lish uchun har qanday bayramlar (jumladan, lekin cheklanmagan holda tug‘ilgan kun, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan mazkur Siyosatning 3.2.1. va 3.2.2.-bandlarida keltirib o‘tilmagan boshqa davlat organlari va Jamiyatlari xodimlari, hamkorlar va kontragentlar, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mazkur Siyosatning 3.2.1.-bandida sanab o‘tilgan sogv‘alar va moddiy boyliklar olish taqiqlanadi.	3.2.3. Во избежание любых сомнений (подозрений) по случаю любых праздников (включая, но не ограничиваясь: день рождения, рождение ребенка, День защитников Отечества, Международный женский день, Новый год и т. д.) запрещается получение подарков и материальных ценностей, перечисленных в пункте 3.2.1 настоящей Политики, от работников других государственных органов и обществ, партнеров и контрагентов, иных физических и юридических лиц, не указанных в пунктах 3.2.1 и 3.2.2 настоящей Политики.

3.2.4. Jamiyat nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg‘alar berish rahbar buyrug‘iga ko‘ra muvofiq amalga oshiriladi.	3.2.4. Предоставление подарков от имени Общества на международных конференциях, симпозиумах и других деловых (служебных) встречах осуществляется в соответствии с приказом руководителя.
3.2.5. Sovg‘a berish, uni qabul qilishning qonuniyligida shubha tug‘ilgan taqdirda Jamiyat xodimi Jamiyatda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga maslahat so‘rab murojaat qilishi lozim.	3.2.5. В случае возникновения сомнений в законности дарения или получения подарка, работник Общества обязан обратиться за консультацией в структуру внутреннего антикоррупционного контроля Общества.
3.3. Jamiyat xodimlarining ish faoliyati yuzasidan o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi	3.3. Участие работников Общества в мероприятиях, проводимых в рамках трудовой деятельности
3.3.1. Jamiyat xodimlarining xalqaro va boshqa Tashkilotlar taklifiga ko‘ra ish faoliyati yuzasidan o‘tkaziladigan tadbirlari (ko‘rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi: tadbir O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga mos kelsa; tadbir Jamiyat yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa; tadbir Jamiyat xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta’sir qilmasligi, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo‘lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o‘tkazayotgan loyiha-tadqiqot Jamiyatiga murojaat qilishni tavsiya qilish) ko‘zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo‘lmasligi lozim; Tadbir bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma’lumotlar oshkor qilingan taqdirda Jamiyat va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqei uchun xatar tug‘dirmasligi lozim; Tadbir umume’tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos kelishi hamda ko‘ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasligi lozim; Tadbir mohiyati va qiymatiga ko‘ra o‘rinli bo‘lishi, haddan ziyod hashamatli, qimmat, g‘ayriodatiy bo‘lmasligi va tez-tez takrorlanib turmasligi lozim.	3.3.1. Участие работников Общества в мероприятиях (выставках, семинарах, конференциях и т. д.), проводимых по приглашению международных и других организаций в связи с их трудовой деятельностью, допускается при соблюдении следующих условий: мероприятие соответствует законодательству Республики Узбекистан, принципам и требованиям настоящей Политики, а также иным внутренним документам Общества; мероприятие служит законным интересам Общества или приглашающей стороны; мероприятие не должно влиять на принятие тех или иных решений работниками Общества и не должно преследовать цель скрытого незаконного вознаграждения для получения каких-либо неправомερных преимуществ (например, рекомендации заказчикам обращаться в проектно-исследовательское Общество, проводящее мероприятие); мероприятие не должно создавать рисков для репутации Общества, принимающей или приглашающей стороны в случае раскрытия информации об участии в нем; мероприятие должно соответствовать общепризнанной научной и деловой практике и не должно носить развлекательный характер; мероприятие должно быть уместным по своей сути и стоимости, не должно быть чрезмерно роскошным, дорогим, необычным и не должно повторяться слишком часто.

3.3.2. Agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi Tashkilotni o'zi bo'lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu Siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.	3.3.2. Если организатором деловых мероприятий (семинаров, симпозиумов, круглых столов и т. д.) является само Общество, то такое деловое мероприятие должно соответствовать требованиям, изложенным в настоящей Политике.
3.4. Kadrlar bilan bog'liq jarayonni tartibga solish (xodimlarni tanlash, lavozimini oshirish, moddiy rag'batlantirish)	3.4. Регулирование кадровых процессов (отбор персонала, повышение в должности, материальное стимулирование)
3.4.1. Jamiyat xodimlarini tanlash, attestatsiyadan o'tkazish va ularning faoliyatini baholash, jumladan mukofot, ustamalar va rag'batlantirishning boshqa turlarini amalga oshirish jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng huquqli va xolis hisoblanib, mazkur Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga mos kelishi lozim.	3.4.1. Процессы отбора, аттестации и оценки деятельности работников Общества, включая выплату премий, надбавок и других видов стимулирования, являются прозрачными, равноправными и беспристрастными для всех работников и должны соответствовать основным принципам и требованиям настоящей Политики.
3.4.2. Nomzodlarni Jamiyatga tanlash va tayinlash jarayoni Nomzodlarni Jamiyatga qabul qilish uchun tekshirish bo'yicha qo'llanma va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibiga muvofiq kompleks ravishda tekshirish bilan birga amalga oshiriladi.	3.4.2. Процесс отбора и назначения кандидатов в Общество осуществляется в комплексе с проведением проверки в соответствии с Руководством по проверке кандидатов при приеме в Общество, иными внутренними документами Общества и порядком управления конфликтом интересов.
3.4.3. Jamiyatda xodimlarga oid masalalarda qaror qabul qiluvchi xodimlarning lavozimini oshirganda, lavozimga tayinlanganda, kadrlar zahirasi qo'shganda va h.k.larda nomzod (xodim)larga har qanday asossiz imtiyozlar taqdim etishi taqiqlanadi.	3.4.3. Работникам Общества, принимающим решения по кадровым вопросам, запрещается предоставление любых необоснованных привилегий кандидатам (работникам) при повышении их в должности, назначении на должность, включении в кадровый резерв и т. д.
3.4.4. Bo'sh lavozimlarga saralab olish egallanayotgan lavozimga qo'yiladigan talablarga muvofiq tanlov asosida yoki boshqa usul yordamida amalga oshirilishi lozim. Bunda nomzodning malakasi, kasbiy va ilmiy yutuqlariga asosiy e'tibor qaratiladi.	3.4.4. Отбор на вакантные должности должен осуществляться на конкурсной основе или иным методом в соответствии с требованиями, предъявляемыми к занимаемой должности. При этом основное внимание уделяется квалификации, профессиональным и научным достижениям кандидата
3.4.5. Jamiyatda xodimlar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilishi va xodimlar uning asosida rag'batlantirilishi lozim. Mazkur ko'rsatkichlar xolis, shaffof va Jamiyat xodimlari tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lishi lozim.	3.4.5. В Обществе должен быть разработан порядок и критерии оценки ключевых показателей эффективности деятельности работников, на основании которых осуществляется их стимулирование. Данные показатели должны быть объективными, прозрачными и открытыми для ознакомления работниками Общества
3.5. Davlat organlari va tashkilotlarida tekshiruvlar o'tkazish va faoliyatini o'rganish	3.5. Проведение проверок и изучение деятельности в государственных органах и организациях
3.5.1. Turli tekshiruvlar, o'rganishlar, monitoring o'tkazishda (keyingi o'rinlarda – tekshiruv obyektlari) Jamiyat xodimlari:	3.5.1. При проведении различных проверок, изучений и мониторинга (далее — объекты проверки) работники Общества обязаны:

manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymasligi; tekshiruv obyekti tekshiruv, o‘rganishi, monitoringini yakka o‘zi amalga oshirmasligi; tekshiruv obyektiga tashrif buyuruvchilar yoki ularning vakillari Jamiyat, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga shaxsan tashrif buyurganda ular bilan yolg‘iz qolmasligi; yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan qoidabuzarliklarni soxtalashtirish maqsadida tekshiruv, o‘rganish o‘tkazish, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik normalarini noto‘g‘ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qilish yoki boshqa davlat organlariga topshirish bilan qo‘rqitmasligi; tekshiruv obyekti xodimlariga tahdid qilmasligi; hujjatlarni so‘rab olish va tekshiruv, o‘rganish, monitoring predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi lozim; tekshiruv, o‘rganish, monitoring davomida aniqlangan har bir qoidabuzarlikning qonuniy va professional baholanishini ta‘minlashi; qoidabuzarliklarning video yoki fotoqaydini amalga oshirishi (o‘rni kelganda), Jamiyat tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga qoidabuzarliklarga oid ma‘lumotlarni kiritishi; agar tekshiruv obyekti vakillari Jamiyat xodimiga aniqlangan qoidabuzarliklarni yashirish maqsadida pora yoki har qanday moddiy boyliklar yoki xizmatlar taqdim etayotgan bo‘lsa, bu haqida tekshiruv bo‘yicha ishchi guruh rahbariga va Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmasiga zudlik bilan xabar berishi; tekshiruv, o‘rganish, monitoring obyekti vakillariga Jamiyat xodimlarining xulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo‘lishi shart.	не допускать возникновения конфликта интересов; не проводить проверку, изучение или мониторинг объекта проверки единолично; не оставаться наедине с посетителями или их представителями при их личном посещении Общества, его территориальных и структурных подразделений; не проводить проверку или изучение с целью фальсификации возможных правонарушений, не допускать неверного толкования норм законодательства Республики Узбекистан, не запугивать работников проверяемого объекта передачей выявленных фактов в правоохранительные или иные государственные органы; не угрожать работникам объекта проверки; не запрашивать документы и не интересоваться вопросами, не входящими в предмет проверки, изучения или мониторинга; обеспечивать законную и профессиональную оценку каждого нарушения, выявленного в ходе проверки, изучения или мониторинга; осуществлять видео- или фотофиксацию нарушений (при необходимости), вносить сведения о нарушениях в информационные системы, используемые Обществом; немедленно уведомлять руководителя рабочей группы по проверке и структуру внутреннего антикоррупционного контроля Общества, если представители объекта проверки предлагают работнику Общества взятку, любые материальные ценности или услуги с целью сокрытия выявленных нарушений; относиться к представителям объекта проверки беспристрастно, в соответствии с принципами поведения работников Общества.
3.5.2. Jamiyat tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlar, o‘rganishlar va monitoring natijalari yuzasidan kelib tushgan e‘tirozlarni ko‘rib chiqish uchun komissiya tashkil etiladi.	3.5.2. Для рассмотрения возражений, поступивших по результатам проведенных Обществом проверок, изучений и мониторинга, создается комиссия.
3.6. Vakolatli davlat organlari, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali o‘zaro hamkorlikni ta‘minlash	3.6. Обеспечение прозрачного и эффективного взаимодействия с компетентными государственными органами, контрагентами и третьими лицами

3.6.1. Jamiyat mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalariga zid har qanday to'lovlarni yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalb qilmaydi.	3.6.1. Общество не привлекает поставщиков, подрядчиков и иных третьих лиц для осуществления любых платежей или действий, противоречащих принципам и требованиям настоящей Политики, а также нормам законодательства Республики Узбекистан.
3.6.2. Kontragentlar bilan munosabatlarda Jamiyat qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.	3.6.2. В отношениях с контрагентами Общество придерживается принципов законности и прозрачности.
3.6.3. Jamiyatda obyektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek sotib olinayotgan tovar va xizmatlar qiymatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Jamiyatning ichki xujjatlari bilan tartibga solinadi.	3.6.3. В Обществе внедрен честный, открытый и прозрачный процесс отбора поставщиков, подрядчиков и других контрагентов, основанный на использовании объективных критериев, а также прозрачный порядок определения стоимости закупаемых товаров и услуг, которые регулируются действующим законодательством Республики Узбекистан и внутренними документами Общества.
3.6.4. Kontragentlar bilan o'zaro hamkorlikda Jamiyat: Jamiyatda kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchliligi, jumladan u o'tmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilingan yoki qilinmaganligi, Jamiyat xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi; potensial kontragent, jumladan xarid tartib-taomillari g'olibini u bilan shartnoma matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni qo'shish orqali o'zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari haqida xabardor qiladi.	3.6.4. При взаимодействии с контрагентами Общество: проверяет надежность потенциального контрагента в соответствии с Инструкцией по проверке контрагентов в Обществе и требованиями законодательства Республики Узбекистан, в том числе его причастность в прошлом к коррупционной деятельности, а также наличие или отсутствие конфликта интересов с работниками Общества; информирует потенциального контрагента, в том числе победителя закупочных процедур, о своих антикоррупционных принципах и требованиях путем включения в текст договора с ним специальных антикоррупционных условий.
3.6.5. Vakolatli davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishda (masalan, litsenziya berish, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlar, obyektlarni kelishishda va h.k) Jamiyat hujjatlarni ko'rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta'minlaydi hamda zarur hollarda mazkur davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalarga kelish sabablari xususida qo'shimcha ma'lumotlarni talab qiladi.	3.6.5. При взаимодействии с компетентными государственными органами (например, при выдаче лицензий, участии в специализированных советах, согласовании различных документов, объектов и т. д.) Общество обеспечивает прозрачность и беспристрастность рассмотрения документов и в необходимых случаях запрашивает у данных государственных органов дополнительную информацию о причинах вынесения отрицательных и иных заключений.
3.7. Xayriya va homiylik faoliyatining shaffof va samarali jarayonini ta'minlash	3.7. Обеспечение прозрачного и эффективного процесса благотворительной и спонсорской деятельности
3.7.1. Jamiyat qonunchilik bilan belgilangan holatlarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar	3.7.1. Общество может принимать благотворительную и спонсорскую помощь в случаях, установленных законодательством. При получении такой

to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, mablag'larni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash, shuningdek xayriya va homiylik faoliyatiga doir axborotni Jamiyatning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida ochiqdash bo'yicha barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi	помощи принимаются все меры по недопущению конфликта интересов, обеспечению эффективного и целевого направления средств на цели, указанные в законодательстве Республики Узбекистан или в договоре, а также по раскрытию информации о благотворительной и спонсорской деятельности на официальном веб-сайте Общества в сети Интернет.
3.7.2. Jamiyat tomonidan qabul qilinayotgan xayriya yoki homiylik yordami yashirin mukofot tarzida bo'lmashligi va Jamiyatning alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xayriya qiluvchi yoki homiyda ularga nisbatan shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.	3.7.2. Принимаемая Обществом благотворительная или спонсорская помощь не должна носить характер скрытого вознаграждения и не должна влиять на принятие отдельными работниками Общества решений в пользу благотворителя или спонсора, его близких родственников, связанных с ними лиц, а также лиц, в отношении которых у благотворителя или спонсора имеется личная заинтересованность.
3.7.3. Jamiyat tomonidan xayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi talablar bajarilishi lozim: xayriya qiluvchi yoki homiy bilan albatta shartnoma tuzish va unda xayriya yoki homiylik yordamini olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya qiluvchi yoki homiy oldida kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to'g'risida hisob berish usuli belgilab qo'yilishi lozim; bunday shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish; Jamiyatning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirish.	3.7.3. При получении Обществом благотворительной или спонсорской помощи должны соблюдаться следующие требования: обязательное заключение договора с благотворителем или спонсором, в котором должны быть определены цели получения и использования благотворительной или спонсорской помощи, формы помощи, сумма помощи в денежном выражении, способ отчетности перед благотворителем или спонсором о целевом использовании поступившей помощи; включение в такой договор антикоррупционных условий; размещение информации о полученной благотворительной или спонсорской помощи на официальном веб-сайте Общества в сети Интернет.
3.8. Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi	3.8. Антикоррупционная экспертиза внутренних документов
3.8.1. Ichki hujjatlarning huquqiy ekspertizasini o'tkazishda Jamiyatning yuridik xizmati korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi korrupsiyaviy omillar mavjudligi va ularni hujjatlardan chiqarib tashlash maqsadida ekspertiza o'tkazadi.	3.8.1. При проведении правовой экспертизы внутренних документов юридическая служба Общества проводит экспертизу на предмет наличия коррупционных факторов, создающих возможность для совершения коррупционных действий, и в целях их исключения из документов.
3.9. Jamiyat faoliyati sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish	3.9. Внедрение новых технологий в сферу деятельности Общества
3.9.1. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida Jamiyat xodimlari o'z funksiyalari va lavozim majburiyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradi (agar imkoni mavjud bo'lsa).	3.9.1. В целях минимизации коррупционных рисков работники Общества осуществляют свои функции и должностные обязанности с использованием информационных технологий (при наличии такой возможности).
3.9.2. Davlat xaridlari doirasida tanlov savdolarini o'tkazishda Jamiyat xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalanadi va tanlov savdolari ishtirokchilari bilan	3.9.2. При проведении конкурсных торгов в рамках государственных закупок работники Общества используют информационные технологии и

o‘zaro aloqani elektron shaklda onlayn rejimida boshqa elektron tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini qo‘llagan holda amalga oshiradi.	осуществляют взаимодействие с участниками конкурсных торгов в электронной форме в режиме онлайн с применением возможности интеграции с другими электронными системами.
3.10. Jamiyatdagi faoliyatni videoqayd qilish va uning translyatsiyasi	3.10. Видеофиксация деятельности в Обществе и её трансляция
3.10.1. Jamiyat binolarida xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o‘rnatilib, ulardagi yozuvlar Jamiyatning mas‘ul xodimlari tomonidan ko‘rib boriladi.	3.10.1. В зданиях Общества в целях контроля деятельности работников устанавливаются камеры аудио- и видеозаписи, записи с которых просматриваются ответственными работниками Общества
3.10.2. Jamiyatning Internet tarmog‘idagi rasmiy saytlarida korrupsiya xavf-xatari yuqori bo‘lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyasi joylashtiriladi (xususan, xodimlar bilan suhbat o‘tkazish, ularni testdan o‘tkazish, komissiyalar yig‘ilishlari va h.k.).	3.10.2. На официальных сайтах Общества в сети Интернет размещается онлайн-трансляция отдельных процессов с высоким коррупционным риском (в частности, проведение собеседований с работниками, их тестирование, заседания комиссий и т. д.)
IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari	IV. Элементы системы противодействия коррупции
4.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari	4.1. Элементы системы противодействия коррупции
4.1.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosini: mazkur Siyosat; Jamiyat xodimlarining odob-ahloq qoidalari; Jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizomda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.	4.1.1. Основу системы противодействия коррупции составляют принципы и требования, отраженные в: настоящей Политике; Правилах этики и служебного поведения работников Общества; Положении о порядке управления конфликтом интересов в Обществе.
4.1.2. Jamiyat rahbarlari xodimlarga oliy rahbarlik namunasini ko‘rsatishi lozim.	4.1.2. Руководители Общества должны демонстрировать работникам пример высшего руководства.
4.1.3. Jamiyat rahbari va uning o‘rinbosarlari, shuningdek Jamiyat tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari o‘ziga bo‘ysunuvchilar, fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan munosabatlarda halol, odil va mustaqil xulq-atvor namunasi bo‘lishi va shu orqali ularda korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.	4.1.3. Руководитель Общества и его заместители, а также руководители структурных подразделений Общества должны служить примером честного, справедливого и независимого поведения в отношениях с подчиненными, гражданами и юридическими лицами, и тем самым способствовать формированию у них нетерпимого отношения к коррупционным действиям.
4.1.4. Jamiyat rahbari va ularning o‘rinbosarlari, shuningdek Jamiyat tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari Jamiyat faoliyatining xavf-xatar funksiyalari (yo‘nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar va tartib-taomillarni joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini barpo etish va amalga oshirishga nisbatan liderlikni namoyish qiladi.	4.1.4. Руководитель Общества и его заместители, а также руководители структурных подразделений Общества демонстрируют лидерство в создании и реализации эффективной системы противодействия коррупции путем внедрения эффективных антикоррупционных мер и процедур в рискованные функции (направления) деятельности Общества.
4.2. Korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash	4.2. Выявление и оценка коррупционных рисков

4.2.1. Jamiyat o'z faoliyatiga xos korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkiliy tuzilmalar funksiyalarining xususiyati, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlar, shuningdek Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda amalda oshiradi.	4.2.1. Общество осуществляет выявление и оценку коррупционных рисков, присущих его деятельности, с учетом характера функций организационных структур, взаимоотношений с обществом и иными лицами, а также внешних и внутренних факторов в соответствии с методикой оценки коррупционных рисков в Обществе
4.2.2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bir yilda bir martadan kam bo'lmagan vaqtda o'tkaziladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari Jamiyatning rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillar Jamiyatning korrupsiyaga qarshi dastur yoki yo'l xaritalarida aks ettiriladi.	4.2.2. Оценка коррупционных рисков проводится не реже одного раза в год. Результаты оценки коррупционных рисков рассматриваются руководителем Общества. Антикоррупционные меры и процедуры, минимизирующие выявленные риски, отражаются в антикоррупционной программе или «дорожных картах» Общества
4.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul	4.3. Ответственный за противодействие коррупции
4.3.1. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun alohida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tashkil etiladi.	4.3.1. Для формирования эффективной системы противодействия коррупции в Обществе создается отдельная структура внутреннего антикоррупционного контроля
4.3.2. Jamiyatda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi o'z faoliyatini Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi to'g'risidagi nizom asosida amalga oshiradi va bevosita Jamiyat rahbariga (Jamiyat hay'atiga) bo'ysunadi.	4.3.2. Структура внутреннего антикоррупционного контроля в Обществе осуществляет свою деятельность на основании Положения о структуре внутреннего антикоррупционного контроля и подчиняется непосредственно руководителю Общества (правлению Общества)
4.3.3. Jamiyat rahbari Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasini Jamiyat korrupsiyaga qarshi vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli darajadagi mustaqillik va zarur resurslar bilan ta'minlaydi.	4.3.3. Руководитель Общества обеспечивает структуру внутреннего антикоррупционного контроля достаточным уровнем независимости и необходимыми ресурсами для реализации антикоррупционных задач Общества
4.3.4. Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (bo'limlari) Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarida ko'zda tutilgan tartib va hajmda xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularga aloqador shaxslarga doir ma'lumotlarning tizimli va o'z vaqtida yig'ilishi, tahlil qilinishi va aktuallashtirilishi uchun javob beradi.	4.3.4. Управление (отделы) по работе с персоналом Общества несет ответственность за системный и своевременный сбор, анализ и актуализацию сведений о близких родственниках и связанных с ними лицах работников в порядке и объеме, предусмотренных Положением о порядке управления конфликтом интересов в Обществе, а также нормами законодательства Республики Узбекистан
4.3.5. Jamiyatning barcha muassasalarida alohida Odob-ahloq komissiyalari faoliyat yuritadi.	4.3.5. Во всех учреждениях Общества действуют отдельные Комиссии по этике
4.3.6. Jamiyatdagi Odob-ahloq komissiyalari Jamiyatdagi xodimlarning etik xulq-atvor qoidalari bilan belgilangan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish	4.3.6. Комиссии по этике Общества рассматривают вопросы соблюдения работниками норм поведения, установленных правилами этического

masalalarini ko'rib chiqadi, shuningdek Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatlarni tartibga solish jarayonida ishtirok etadi.	поведения в Обществе, а также участвуют в процессе урегулирования ситуаций, связанных с конфликтом интересов, в порядке, определенном Положением об управлении конфликтом интересов в Обществе
4.4. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosati to'g'risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta'minlash	4.4. Обеспечение осведомленности работников и третьих лиц об антикоррупционной политике Общества
4.4.1. Jamiyat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qisqartirish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Siyosat va o'zlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarga oid asosiy axborotlarni rasmiy veb-saytlarida joylashtiradi.	4.4.1. В целях сокращения коррупционных рисков и повышения осведомленности общественности, Общество размещает на своих официальных веб-сайтах основную информацию о настоящей Политике и реализуемых им антикоррупционных мерах
4.4.2. Jamiyat barcha kuch va imkoniyatlarini xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagilar orqali O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi normalari, shuningdek joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar va talablar to'g'risida xabar berish va ularni tushuntirishga sarflaydi: Jamiyat rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali Jamiyatda xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish; Jamiyat xodimlarini Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishga doir rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o'qitilishi hamda testdan o'tkazilishini ta'minlash; Yangi xodimlarni ishga qabul qilayotganda ushbu Siyosat va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan albatta tanishtirgan holda, ular uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarni tashkil etish; Jamiyatdagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o'qitishning qo'shimcha dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'quv kurslari/treninglarga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash boshqarmasida saqlanadi; mavzuga doir audio va videoroliklar hamda Jamiyat xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish va ularda korrupsiyaga nisbatan munosabatni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan boshqa axborot	4.4.2. Общество направляет все усилия и возможности на информирование и разъяснение работникам и иным заинтересованным лицам норм антикоррупционного законодательства Республики Узбекистан, а также внедренных антикоррупционных принципов, мер и требований путем: направления руководством Общества через электронную почту и другие средства связи регулярных сообщений о важности соблюдения работниками принятых в Обществе антикоррупционных норм и требований; обеспечения регулярного и системного обучения основам противодействия коррупции не реже одного раза в год, а также проведения тестирования в соответствии с планом обучения работников Общества по вопросам противодействия коррупции; обязательного ознакомления новых работников при приеме на работу с настоящей Политикой и иными внутренними антикоррупционными документами Общества, а также организации для них обязательных учебных курсов по противодействию коррупции; установления дополнительных программ антикоррупционного обучения для должностей с высоким уровнем коррупционного риска в Обществе. Сведения о проведенных учебных курсах/тренингах хранятся в Управлении по работе с персоналом Общества в порядке, установленном законодательством Республики Узбекистан; организации антикоррупционных кампаний с использованием тематических аудио- и видеороликов, а также других информационных материалов, направленных на повышение осведомленности работников Общества и граждан о принимаемых мерах по противодействию коррупции и формирование у них нетерпимого отношения к коррупции;

materiallaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kampaniyalar tashkil qilish; mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar tug'ilganda, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Jamiyat xodimlariga maslahatlar berish; tasdiqlangan reja asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Jamiyatda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni faol tarzda targ'ib qilish; Jamiyat xodimlari mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritish. Jamiyat mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Jamiyatning yangi xodimlari bilan tuziladigan, shuningdek shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida xodimlarning amaldagi mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritadi; Jamiyat kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish. Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Jamiyatning yangi kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladi. Korrupsiyaga qarshi shartlar Jamiyatning barcha shartnomalariga kiritiladi (barcha turdagi xaridlar, import, eksportlar, xizmatlar va xok.lar) (pochta, elektr energiyasi, gaz ta'minoti, suv ta'minoti, temir yo'llari, havo yo'llari va shu toifadagilar bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno). Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat qabul qilinishidan oldin tuzilgan shartnomalarga shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida yoki tashabbusga ko'ra kiritiladi.	предоставления консультаций работникам Общества структурой внутреннего антикоррупционного контроля при возникновении вопросов, связанных с применением положений настоящей Политики или реализацией антикоррупционных мер и процедур; активной пропаганды антикоррупционного поведения в Обществе структурой внутреннего антикоррупционного контроля на основании утвержденного плана; включения антикоррупционных положений в трудовые договоры работников Общества. С момента вступления в силу настоящей Политики Общество включает антикоррупционные положения в трудовые договоры, заключаемые с новыми работниками, а также в действующие трудовые договоры в рамках пересмотра их условий; включения антикоррупционных условий в договоры, заключаемые с контрагентами, партнерами, благотворителями и спонсорами Общества. Антикоррупционные условия включаются в договоры со всеми новыми контрагентами, партнерами, благотворителями и спонсорами с момента вступления в силу настоящей Политики. Данные условия вносятся во все виды договоров Общества (все виды закупок, импорт, экспорт, услуги и т.д.), за исключением договоров, заключаемых с организациями почтовой связи, электроснабжения, газоснабжения, водоснабжения, железных дорог, авиалиний и иными аналогичными категориями. В договоры, заключенные до принятия настоящей Политики, антикоррупционные условия вносятся в рамках пересмотра условий или по инициативе сторон
4.5. Monitoring, nazorat va hisobdorlik	4.5. Мониторинг, контроль и отчетность
4.5.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul Jamiyatda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning doimiy monitoringi, nazorati va ularning samaradorligi, yetarliligi va mutanosibligini baholanishini amalga oshiradi. O'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishga doir tegishli chora-tadbirlar qabul qilinadi.	4.5.1. Лицо, ответственное за противодействие коррупции, осуществляет постоянный мониторинг и контроль внедренных в Обществе антикоррупционных процедур, а также оценку их эффективности, достаточности и соразмерности. По результатам проведенного мониторинга принимаются соответствующие меры по формированию системы противодействия коррупции в Обществе.
4.5.2. Monitoring va nazorat Jamiyatda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.	4.5.2. Мониторинг и контроль осуществляются в соответствии с методикой мониторинга и контроля эффективности антикоррупционных процедур в Обществе и иными внутренними документами Общества.

4.5.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi lozim: Jamiyat faoliyati funksiyalari va o‘ziga xos jihatlari, uning tashkiliy-funksional tuzilmasi hamda boshqa tashqi va ichki omillaridagi o‘zgarishlarning Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va uni to‘g‘irlash zarurati, jumladan uning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligini ta‘minlashga ta‘siri tahlili; O‘zbekiston Respublikasining faoliyatida qo‘llaniladigan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va hokimiyat organlari tavsiyalarining monitoringi; xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimini yaratish va qo‘llab-quvvatlash masalalariga doir tavsiyalari monitoringi; ommaviy axborot vositalarining Jamiyat yoki xodimlari korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek Jamiyat kontragentlari yoki hamkorlari to‘g‘risida xuddi shunday ma‘lumotlar mavjudligi yuzasidan monitoring; samarasiz nazoratlar va tartib-taomillarni aniqlash uchun ularni takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi tizim ishonchliligi va samaradorligini ta‘minlash maqsadida tanlov asosida Jamiyatning ichki jarayonlari va funksiyalarini monitoring qilish; Jamiyatning korrupsiyaga qarshi dasturi yoki yo‘l xaritasi bndlari bajarilishining to‘liqligi va samaradorligini monitoring qilish; Jamiyat xodimlari tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi talablar va joriy etilgan tartib-taomillarga rioya qilinishini tekshirish; Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablar to‘g‘risida xabardorligini tekshirish.	4.5.3. Мониторинг системы противодействия коррупции должен осуществляться по следующим основным направлениям: анализ влияния изменений в функциях и специфике деятельности Общества, его организационно-функциональной структуре, а также в иных внешних и внутренних факторах на систему противодействия коррупции Общества и необходимость её корректировки, включая обеспечение её соответствия законодательству Республики Узбекистан; мониторинг законодательства в сфере противодействия коррупции, применяемого в деятельности Республики Узбекистан, и рекомендаций органов власти; мониторинг рекомендаций международных и иностранных организаций по вопросам создания и поддержания эффективной системы противодействия коррупции; мониторинг средств массовой информации на предмет наличия сведений о причастности Общества или его работников к коррупционным действиям, а также аналогичных сведений в отношении контрагентов или партнеров Общества; выборочный мониторинг внутренних процессов и функций Общества в целях выявления неэффективных мер контроля и процедур для их совершенствования, а также обеспечения надежности и эффективности антикоррупционной системы; мониторинг полноты и эффективности выполнения пунктов антикоррупционной программы или «дорожной карты» Общества; проверка соблюдения работниками Общества принятых антикоррупционных требований и внедренных процедур; проверка осведомленности работников Общества об основных антикоррупционных принципах и требованиях.
4.5.4. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligi (korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud emasligi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ichki auditini o‘tkazish, jumladan Jamiyatda belgilangan talablar va tartib-taomillarga rioya etilishini nazorat qilish orqali tekshiriladi.	4.5.4. Эффективность системы противодействия коррупции в Обществе (отсутствие коррупционных рисков) проверяется путем проведения внутреннего аудита системы противодействия коррупции, в том числе через контроль соблюдения установленных в Обществе требований и процедур
4.5.5. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish tadbirlari yakunlari va natijalari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati	4.5.5. Итоги и результаты мероприятий по мониторингу и контролю системы противодействия коррупции отражаются в отчетах о состоянии

haqidagi hisobotlarida aks ettiriladi. Hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibi Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarini shakllantirish va taqdim etish bo'yicha ichki idoraviy hujjatda mustahkamlab qo'yiladi.	антикоррупционной системы. Порядок формирования и представления отчетов закрепляется во внутреннем ведомственном документе о порядке формирования и представления отчетов о состоянии системы противодействия коррупции в Обществе
4.6. Javobgarlik	4.6. Ответственность
4.6.1. Mazkur Siyosatga mos kelish va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi talablari va tartib-taomillariga rioya qilish har bir xodimning o'z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasidagi majburiyati hisoblanadi. Xodimlar mazkur Siyosat va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlarida belgilab qo'yilgan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid talablar va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.	4.6.1. Соответствие настоящей Политике и соблюдение антикоррупционных требований и процедур Общества является обязанностью каждого работника в рамках выполнения его должностных обязанностей. Работники несут персональную ответственность за нарушение требований и процедур по вопросам противодействия коррупции, установленных настоящей Политикой и иными внутренними документами Общества.
4.6.2. Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyiliga amal qilgan holda Jamiyatning barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etish qat'iyman etiladi, ya'ni: o'z mansab va xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish, shuningdek xizmat mavqei va vakolatlarini suiste'mol qilish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy foyda talab qilish, so'rab olish yoki so'rash, olishga rozilik berish yoki olish, shuningdek xodim tomonidan o'z lavozim mavqeidan Jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid ravishda, jumladan o'zi va uchinchi shaxslar uchun noqonuniy foyda olish maqsadida noqonuniy foydalanish; davlatning mansabdor shaxsi yoki boshqa har qanday shaxsga uning harakatlariga ta'sir o'tkazish (harakatsizligini ta'minlash) va/yoki shaxs, jumladan Jamiyat manfaatlarini yo'lida noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritish maqsadida lavozim majburiyatlarini noqonuniy tarzda bajarishga undash, noqonuniy foyda (pora, poraxo'rlik) ni taklif qilish, va'da berish, bunga ijozat berish, taqdim etish; rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish, olish yoki amalga oshirish; poraxo'rlik yoki tijoriy poraga olishda vositachilik qilish, jumladan pora oluvchiga noqonuniy foydani topshirish yoki pora oluvchi yoki beruvchiga ular o'rtasida noqonuniy foydani olish va berish bo'yicha kelishuvga erishishda yordam berish;	4.6.2. Следуя принципу нетерпимости (бескомпромиссности) к коррупции, всем работникам Общества строго запрещается прямо или косвенно, лично или через посредников участвовать в любых коррупционных действиях, а именно: незаконно использовать своё должностное и служебное положение, а также требовать, запрашивать или просить, давать согласие на получение или получать незаконную выгоду от любых лиц в целях злоупотребления служебным положением и полномочиями; а также незаконно использовать работником своё должностное положение вопреки законным интересам Общества, в том числе в целях получения незаконной выгоды для себя и третьих лиц; предлагать, обещать, разрешать или предоставлять незаконную выгоду (взятку, подкуп) должностному лицу государства или любому другому лицу с целью оказания влияния на его действия (обеспечения бездействия) и/или побуждения к незаконному выполнению должностных обязанностей для получения неправомерных преимуществ в интересах лица, включая Общество; взимать, получать или осуществлять платежи за упрощение формальностей; посредничать во взяточничестве или коммерческом подкупе, в том числе передавать незаконную выгоду взяткополучателю или оказывать помощь взяткополучателю либо взяткодателю в достижении соглашения между ними о получении и даче незаконной выгоды;

Jamiyat xodimlarining korrupsiya belgilari mavjud bo'lgan yoki uni sodir etish, jumladan manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi boshqa harakatlari yoki harakatsizligi.	совершать иные действия или проявлять бездействие работников Общества, содержащие признаки коррупции или способствующие её совершению, включая ситуации возникновения конфликта интересов
4.6.3. Xodimlar o'z rahbari va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullariga ularni korrupsiyaviy harakatlarini sodir etishga undash maqsadida murojaat qilgan shaxslar bilan bog'liq, shuningdek ularga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid barcha holatlar to'g'risida xabar berishi lozim.	4.6.3. Работники обязаны уведомлять своего руководителя и лиц, ответственных за противодействие коррупции в Обществе, обо всех случаях обращения к ним каких-либо лиц в целях склонения к совершению коррупционных действий, а также о ставших им известными фактах коррупционных действий, совершенных другими работниками.
4.6.4. Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyilini hisobga olgan holda Jamiyatda xodimlar tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilganligiga doir har bir asosli gumon bo'yicha Jamiyatda xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha reglament va boshqa ichki hujjatlarda ko'zda tutilgan tartibda hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq xizmat tekshiruvini o'tkaziladi.	4.6.4. Исходя из принципа нетерпимости (бескомпромиссности) к коррупции, по каждому обоснованному подозрению в совершении работниками Общества коррупционных действий проводится служебная проверка в порядке, предусмотренном Регламентом проведения служебных проверок и иными внутренними документами Общества, а также в соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан.
4.6.5. Mazkur Siyosat, korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va/yoki Jamiyatning boshqa ichki hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni buzgan Jamiyat xodimlari lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlari doirasida va ularda ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha javobgarlikka tortiladi.	4.6.5. Работники Общества, нарушившие требования настоящей Политики, антикоррупционного законодательства и/или антикоррупционные требования и процедуры, закрепленные в иных внутренних документах Общества, независимо от занимаемой должности, стажа службы и других факторов, привлекаются к ответственности в рамках и по основаниям, предусмотренным законодательством Республики Узбекистан и внутренними документами Общества.
4.6.6. Korrupsiyaviy harakatlar aniqlangan taqdirda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilma ularni yuzaga kelish sabablari va imkoniyatlarini tahlil qiladi va doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradi.	4.6.6. В случае выявления коррупционных действий структура по противодействию коррупции анализирует причины и условия их возникновения и на постоянной основе совершенствует систему противодействия коррупции.
4.6.7. Ichki tekshiruvlar natijalari doimiy ravishda rahbarga, Jamiyat hay'ati va Jamiyatning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga taqdim etiladi.	4.6.7. Результаты внутренних проверок на регулярной основе представляются руководителю, Правлению Общества и руководителям соответствующих структурных подразделений Общества.
4.6.8. Jamiyat korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash va tergov qilish uchun huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.	4.6.8. Общество сотрудничает с правоохранительными и иными государственными органами в целях выявления и расследования коррупционных правонарушений.
V. Korrupsiyaviy harakatlarga doir xabarlar	V. Сообщения о коррупционных действиях
5.1. Jamiyat xodimlarining harakatlari qonuniyligi yoki etikaga mosligi yuzasidan shubha, korrupsiyaviy harakatlar yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli gumonlar yuzaga kelgan	5.1. В случае возникновения сомнений в законности или этичности действий работников Общества, предположений о коррупционных действиях или

taqdirda ular haqida Jamiyatning umumfoydalanuvdagi aloqa kanallari orqali ochiq xabar berilishi mumkin.	иных правонарушений, либо обоснованных подозрений в их совершении, о них можно открыто сообщить через общедоступные каналы связи Общества.
5.2. Jamiyat o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida qoidabuzarlikka oid asosli axborotni taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno.	5.2. Общество в пределах своих полномочий и имеющихся возможностей обеспечивает конфиденциальность данных о лице, предоставившем обоснованную информацию о правонарушении, за исключением случаев, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан.
5.3. Jamiyat o'z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali xulq-atvori yoki mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilgan bo'lishi mumkinligi haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimini tushirish, diskriminatsiya, zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari o'ch olish harakatlariga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.	5.3. Общество защищает интересы своих работников и гарантирует недопущение актов возмездия, таких как увольнение, понижение в должности, дискриминация, притеснение или преследование в отношении работников, добросовестно сообщивших о подозрительном поведении других работников или о возможном нарушении антикоррупционных требований настоящей Политики.
5.4. Jamiyatning aloqa kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar Jamiyat mas'ul shaxslari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyatdagi korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ularni ko'rib chiqishga oid ichki hujjatlar va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va xolisona ko'rib chiqiladi.	5.4. Все сообщения, поступившие по каналам связи Общества, рассматриваются ответственными лицами Общества своевременно и объективно в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, внутренними документами о порядке приема и рассмотрения сообщений, поступивших через каналы связи, предназначенные для информирования о коррупционных действиях, а также иными внутренними документами Общества.
5.5. Jamiyat xodimlari tomonidan ataylab yolg'on xabar yuborish mazkur Siyosat talablarini buzish va etikaga zid xulq-atvor namunasi sifatida baholanadi, bu haqida xabar bergan shaxs esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.	5.5. Намеренное сообщение работниками Общества заведомо ложных сведений расценивается как нарушение требований настоящей Политики и пример неэтичного поведения, а лицо, сообщившее такую информацию, в свою очередь, может быть привлечено к ответственности в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и внутренними документами Общества.
VI. Qayta ko'rib chiqish va o'zgarishlar kiritish tartibi	VI. Порядок пересмотра и внесения изменений
6.1. Mazkur Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi va to'g'irlanishi mumkin: mavjud korrupsiyaga qarshi siyosatlar va tartib-taomillarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiruvchi O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi qonunchiligi o'zgarganda; samarasiz korrupsiyaga qarshi nazorat tadbirlari va tartib-taomillari aniqlanganda, shuningdek Jamiyat faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va	6.1. Настоящая Политика может быть пересмотрена и скорректирована в следующих случаях: при изменении законодательства Республики Узбекистан в сфере противодействия коррупции, влекущем необходимость пересмотра существующих антикоррупционных политик и процедур; при выявлении неэффективных мер антикоррупционного контроля и процедур, а также возникновении необходимости совершенствования

unga qarshi kurashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelganda;

Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi va/yoki funksiyalarining o'ziga xos jihatlari o'zgarganda va h.k.

комплекса мер, направленных на предупреждение и противодействие коррупции в деятельности Общества;

при изменении организационной структуры и/или специфики функций Общества и т. д.

“Navoiyazot” AJ boshqaruv raisi v.b.



F.X. Samadov

И.о. председателя правления